

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламутдинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE".....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	207-210

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI.....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE.....	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOVOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM.....	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH.....	242-246

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROLYA GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOLNIKOV.....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI.....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

TEACHER STRATEGIES THAT ENCOURAGE STUDENTS' CRITICAL THINKING

Islamova Moxichexra Bekmurzayevna

Doctoral Student at Navoi State University

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the personal, social, and pedagogical significance of critical thinking. It highlights critical thinking as an essential competency that supports solid knowledge acquisition, sound decision-making, protection from manipulation, and the development of individual autonomy. The role of pedagogical strategies in the educational process and their application in instructional management are illustrated with relevant examples. The article emphasizes that strategies encouraging students to think independently are grounded in the teacher's deliberate principle of support. It aims to justify the necessity and conceptual framework of pedagogical strategies in the development of critical thinking.

Keywords: critical thinking, pedagogical strategy, independent decision-making, manipulation, educational process, cognitive competency, teacher, students, critical reasoning.

TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI

Islamova Moxichexra Bekmurzayevna

NavDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning shaxsiy, ijtimoiy va pedagogik ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Hamda, tanqidiy fikrlashni mustahkam bilim olish, to'g'ri qaror qabul qilish, manipulyatsiyalardan himoyalaniish va shaxsiy mustaqillikni ta'minlovchi muhim kompetensiya sifatida ochib berilgan. Pedagogik strategiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ta'lim jarayonida boshqarishga xizmat usullari misollar bilan yoritilgan. Talabalarni mustaqil fikr yuritishga undovchi strategiyalar o'qituvchining yordam ko'rsatishdagi aniq prinsipi ekanligi ta'kidlangan. Maqola tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning zarurati va mazmunini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik strategiya, mustaqil qaror, manipulyatsiya, ta'lim jarayoni, kognitiv kompetensiya, o'qituvchi, talabalar, tanqidiy tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N49>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida ta'kidlanganidek oliy ta'lim tizimi ta'lim jarayonini o'quv reja va dasturlarni yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilishga alohida urg'u berilgan.

Tanqidiy fikrlash inson tafakkurining yuqori bosqichi sifatida har qanday kasb egalari uchun zaruriy ko'nikma hisoblanadi. U nafaqat auditoriyada, balki hayotdagi har qanday murakkab vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Miller [7; 37-43 b.] ta'kidlaganidek, bu ko'nikma orqali talabalar darsdagi muammolarni hal qilishdan tortib, hayotiy qarorlar qabul qilishgacha bo'lgan jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishlari uchun zamin yaratadi. Butler,

Pentoney va Bong [3; 38-46 b.] esa tanqidiy fikrlashning oddiy intellektual qobiliyatlardan ko'ra samaraliroq ekanligini isbotlaganlar. Mazkur maqola tanqidiy fikrlashning shaxsiy, ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini ochib berish, uni shakllantirish uchun zamonaviy ta'lim jarayonlarida pedagogning strategiyalarni belgilab olish maqsadlarini ko'zlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada deskriptiv, konseptual, qiyosiy tahlil, tavsiyaviy-amaliy tadqiqot metodologiyalari uyg'un holda qo'llanilgan bo'lib, ular tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining metodik yondashuvlarini chuqur va asosli tahlil qilishga xizmat qiladi.

Natijalar va Muhokamalar. Tanqidiy fikrlash – mustahkam bilim olishning eng muhim jihatlardan biridir. Uning qo'llanish doirasi faqat auditoriya ichida emas, balki inson hayotining deyarli barcha sohalariga tegishlidir. Darsda muammolarni hal qilishdan tortib, hayotiy vaziyatlarga duch kelgunga qadar, tanqidiy fikrlash har bir talaba egallashi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biridir [7; 37-43 b.].

Tanqidiy fikrlashning eng muhim jihati shundaki, bu jarayonda fikrlash ko'nikmalari insonni tahlil qilish, rejalashtirish va aks ettirish talab qilinadigan har qanday hayotiy holatda foydalanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalar majmuasi bilan ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlash – bu har qanday sohaga oid umumiy fikrlash qobiliyati bo'lib, insonni o'z faoliyatida aniq va mantiqiy fikrlashga undaydi. Demak, tanqidiy fikrlash faqatgina ma'lum bir ixtisoslikka ega shaxslar uchungina emas, balki har qanday kasb egasi uchun bebaho boylik hisoblanadi. Butler, Pentoney va Bong [3; 38-46 b.] tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, tanqidiy fikrlash inson hayotida to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishida oddiy intellektual qobiliyatlardan ko'ra bir necha baravar samarali ekanligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlashning ahamiyatli jihatlari nafaqat insonning shaxsiy manfaatlari uchun, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham o'ta muhimligida ko'rinadi. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- *Mantiqiy jihatdan o'z-o'zini himoya qilish;*
- *Shaxsiy mustaqillik va o'ziga ishonchni oshirish;*
- *Liberal demokratiya va fuqarolik burchini anglash;*
- *Falsafa va donolikni izlash*

1. Mantiqiy jihatdan o'z-o'zini himoya qilish - “Tanqidiy fikrlash — *jang san'ati kabi insonni manipulyatsiyadan himoya qiladi*”. Manipulyatsiya — bu insonlarning fikri, qarori yoki harakatlarini *aldov, maxfiy ta'sir yoki psixologik usullar orqali o'zgartirish* jarayonidir. [4; 301-309 b] Tanqidiy fikrlash orqali biz manipulyatsiyani oldindan fahmlab tanib olishni o'rganamiz va mustaqil fikrlashga erishamiz.

2. Shaxsiy mustaqillik va o'ziga ishonchni oshirish - “O'z fikrlarini aniq ifodalash san'ati”. Yaxshi notiq yoki har qanday yetakchi hech qachon dalillarsiz gapirmaydi. U o'z fikrlarini asoslaydi, mantiqan isbotlaydi va atrofdegilarni ishontira oladi. Shuning uchun ham, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar *o'z fikrlarini aniq, tiniq va dalillar bilan isbotlashga qodir bo'ladilar*. Ular boshqalar tomonidan hech qachon manipulyatsiyaga uchramaydilar va mustaqil tarzda ishonchli fikr yurita oladilar [10; 315-327 b.]. Agar inson tanqidiy fikrlashni puxta egallagan bo'lsa, u o'z hayotida *to'g'ri qarorlar qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish va insonlar bilan samarali muloqot qilish* qobiliyatiga ega bo'lishi shubhasizdir.

3. Liberal demokratiya va fuqarolik burchini anglagan “aqli fuqarolar - *mustahkam jamiyat asosi*” hisoblanishadilar. Shu sababli ham, demokratik jamiyatlarda tanqidiy fikrlash

orqali fuqarolarning to'g'ri qarorlar qabul qilishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ta'minlangan bo'ladi.

Insonlarning hayotiy faoliyati jarayonlarida tanqidiy fikrlash bo'lmasa, odamlar noto'g'ri tashviqotlar, soxta ma'lumotlar va yolg'on xabarlariga ishonib qolishlari mumkin hamda bunday jamiyatdagi xalqning siyosiy erkinligi har xil murakkabliklar, chigalliklar girdobida qoladi. Bordi-yu, fuqarolar tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsalar, ular haqiqiy dalillar asosidagina qaror qabul qiladilar.

4. Falsafa va donolikni izlash orqali "haqiqatga erishish"ni asosini tanqidiy fikrlash tashkil qiladi. Falsafa va donolik orqali haqiqatni topish uchun insonlar mustaqil tanqidiy fikrlash hamda dalillarni chuqur tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki, tanqidiy fikrlash asosidagi donolik qobiliyatining mavjudligi — har qanday insonda soxta ma'lumot va axborotlarga ishonmaslikka, chuqur mulohaza yuritishga hamda mustaqil dunyoqarashining shakllanishiga sabab bo'ladi. Demak, diniy, ilmiy, ijtimoiy yoki har qanday siyosiy mavzular bo'yicha fikr yuritish jarayonida tanqidiy tafakkur insonga *to'g'ri xulosa chiqarishda samarali yordam beradi*. Har bir ma'lumot va axborotga shunchaki ishonmaslik, balki *uni dalillar bilan tekshirib ko'rish* insonni haqiqatga yaqinlashtiradi. Tanqidiy fikrlash insonni *turli xil ta'sirlardan himoya qiladi, shaxsiy mustaqillikni rivojlantiradi, jamiyatda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi va falsafiy tafakkurni rivojlantiradi*.

Yuqoridan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, tanqidiy tahlil, tanqidiy qarash, tanqidiy baholash va xulosalash bizning kundalik shiorimizga va dasturi amalimizga aylanishi lozim. Jamiyatni kim rivojlantiradi? – degan haqli savolga barcha aqlli insonlar, — albatta salohiyatli yoshlar deb javob beradilar, shunday ekan biz ta'lim tizimimizga tanqidiy qarashimiz uni tubdan isloh etishimiz lozim. Ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiluvchi yo'llarni *strategiyalarni* ishlab chiqishimiz kerak.

Strategiya – bu maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan *uzoq muddatli reja* yoki *yondashuv*, obrazli qilib aytganda *yo'l boshlovchi* bo'lib, har qanday sohaga tegishli tushuncha bo'lganligidan, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek milliy ensiklopediyasi hamda ko'pgina qomusiy lug'atlarda strategiyaning umumiy mazmuni aks ettirilsa-da, aynan ta'lim yoki pedagogik strategiya tushunchalariga ta'rif keltirilmagan. Pedagogik lug'atlarda esa "Pedagogik strategiya- ta'lim-tarbiya va pedagogika fanida aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq muddatli dasturi" –deb ta'riflangan [8; 98, 5-56 b.].

Tasavvur qiling, siz notanish shaharga kelib qoldingiz va aniq maqsadingiz: *eng tez va samarali yo'l bilan manzilga yetib borishdan* iborat bo'lsin. Agar sizda xarita yoki borishingiz uchun aniq yo'l rejasi bo'lmasa, adashib ketishingiz, notanish yo'ldan yurishingiz, ortiqcha vaqt va mablag' yo'qotishingiz mumkin. Ta'limdagi strategiya xuddi shunday yo'l xaritasi kabi bo'lib, u o'qitish va o'rganish jarayonini rejalashtirishga yordam beradi va shu orqali zamonaviy bilimlarni qisqa vaqtda chuqurroq, samaraliroq o'zlashtirilishiga imkon yaratadi. Demak, ta'lim strategiyalari, *ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning bilim olishlarini yaxshilash uchun ishlatiladigan yondashuvlar, usullar va uslubiyatlar majmui*, ekan. Ta'lim berish jarayonida biz uchun eng muhim bo'lgan *tanqidiy fikrlashni* talabalarda shakllantirish uchun o'qituvchilar va ta'lim muassasalaridagi tajribali uslubshunos-pedagoglar hamkorligida *ilmiy asoslangan yo'l xaritalarini*, ya'ni *strategiyalarni* ishlab chiqishlari va samarali qo'llashlari

lozim. Chunki, ba'zi hollarda sinovdan o'tmagan, ilmiy jihatdan asoslanmagan ko'plab ta'lim strategiyalari bu jarayonda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish jarayonida muvaffaqiyatsizlikka yuz tutganligi barchaga ayon. Masalan, klassik musiqa tinglash, musiqa asboblari chalinib o'rganish va shaxmat o'ynash kabi usullar, shuningdek, tanqidiy fikrlash mashqlari va o'yinlari ham sinovdan o'tkazilganda, talabalarning bilimlarini uzluksiz va uzoq muddatli rivojlantirishga olib kelmagan. Tadqiqotlar - talabalar bir sohada o'rgangan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini boshqa sohaga tatbiq etishlari qiyin ekanligini ham ko'rsatgan. Tajribalarda *transfer* (o'rgangan bilimlarni boshqa kontekstga tatbiq qilish) amaliyoti sinovdan o'tkazilganda, natijalar ijobiy bo'lmagan yoki juda zaif va qisqa muddatli bo'lgan [2].

Aslida, tanqidiy fikrlash hayotda juda muhim o'rin tutishi sababli, uni talabalar uchun o'rgatish o'ta zarur hisoblanadi. Chunki, tanqidiy fikrlashni o'rganish odamlarning o'z hayotlarini boshqarishlari va qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishlariga yordam beradi[2;]. Shuning uchun ham so'nggi yillarda ta'lim jarayonida faqatgina axborotni yod olishgagina emas, balki uni tushunish va tahlil qilishga asoslangan *kognitiv yondashuvni* shakllanishida ham, *tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining* muhimligini ayniqsa ish beruvchilar va oliy o'quv yurtlari mutasaddilari ta'kidlamogdalar. Shu sababli, bo'lg'usi o'qituvchi-talabalarning fikrlash darajasini oshirish uchun an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, *yangi ta'lim strategiyalarini* qo'llashni, zamonaviy texnologik taraqqiyotga mos tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ehtiyojini yanada oshirmoqda. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirish talabalar o'rganayotgan ma'lumotni to'g'ri tushunish va tahlil qilishlariga yordam beradi [11; 40-50 b.].

Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish ularning kelgusi hayotida yuzaga keladigan masala, muammolar yechimida eng muhim qarorlarni qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Bu maqsadga erishishning eng samarali usuli — *talabalarga dars jarayonlarida mustaqil ravishda muammolarni hal qilish imkoniyatini berish hisoblanadi*. Biroq, biz o'qituvchilarning nafaqat qon-qonimizga, balki jonimizga ham chuqur singib ketgan insoniylikka aloqador bo'lgan azaliy qadriyatimiz, ya'ni *bolajonligimiz* ba'zi-ba'zida o'zimizga xalaqit beradi. *"Biz, o'qituvchilar, yordam berishga intiluvchi insonlarmiz. Ko'pchiligimizni aynan bolalarga yordam berish istagi o'qituvchilik kasbiga yetaklagan. Ammo, ba'zan bizning yordamimiz talabalar uchun foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin"* [6]. Ko'pchilik o'qituvchilar talabalarga bilim olish jarayonida duch kelgan qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga shoshilishadilar. Bu garchi mehribonlik belgisiga o'xshasa ham, buning natijasi kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin – deb ta'kidlaydi, — Ginsburg [6]. Demak, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, — "talabaning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri – unga darhol yordam berishga shoshilmaslikdir". Yordam berish, talabalar uchun eng oson yo'l bo'lib tuyulsa-da, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. O'qituvchilar talabalarni mustaqil fikrlashga undashlari va ularga yetarlicha vaqt berishlari lozim [9;]. Ko'pincha o'qituvchilar yordam berish o'zlarining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydilar. Biroq, talabalar avvalo muammolarni mustaqil hal qilishga harakat qilishlari va shundan keyingina eng yaxshi yechimni topishda yordam olishlari kerak [11; 40-50 b.].

Ustozlar avvalo, talabalarning mustaqil fikr yuritishiga fursat berishi va buni amalga oshirishi uchun o'zlarining kuchlari yetishishiga ishontirishi lozim bo'ladi. Garchi, yordam berish o'qituvchilarning asosiy xislatlaridan biri bo'lsa-da, talabalarga ushbu muammolarni hal qilishga mustaqil harakat qilishlariga imkon va vaqt berish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirishga yordam berishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Buning natijasida ularda muammolarga mukammal yechim topish ko'nikmalari rivojlanadi.

O'qituvchilar talabalarni tanqidiy fikrlashlari uchun foydalanishi mumkin bo'lgan strategiyalar:

Talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llab, natijalari bo'yicha fikr-mulohaza olish imkoniyatini yarating;

Xato fikrlashdan qo'rqmaslikka va ulardan xulosa chiqarishga o'rgating.

3. Talabalarga fikrlarini o'z darajasidan yuqori bo'lgan kishilar bilan mulohazalashishga imkon bering;

4. Murakkab g'oya va vaziyatlar ustida qayta-qayta fikrlashga majbur qiling.

5. Ma'lumotlarni turli vaqtlarda, turli usullarda va turli manbalardan olishini ta'minlang.

6. Ularga o'qish jarayonini mustaqil boshqarish uchun yetarli yordam bering;

7. Ularni nimanidir yangilik yaratishga undang;

8. Ularning harakatlari va yutuqlari qadrli ekanligini tushunishlariga yordam bering;

9. Ularning fikrlarini hurmat qiling va rag'batlantiring;

10. Ularni bir-birilarining fikrlarini hurmat qilishga o'rgating;

11. Ularga o'rganayotgan mavzu yoki bilimning o'zlari uchun nechog'lik muhimligini tushunish imkonini bering;

12. Ularni o'z savollarini berishga va yanada yaxshi savollar tuzishga undang;

13. O'z xatolariga, fikrlash uslublariga va muvaffaqiyatli fursatlariga qayta nazar solishlarini rag'batlantiring;

14. Ularni muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqmaslikka va o'zlariga ishonishga o'rgating;

15. O'z rivojlanishlarini kuzatish imkoniyatini yarating;

16. Ularga nuqsonlari ustida ishlashni va ularni tahlil qilib, bartaraf etishga o'rgating;

17. Ularga biror g'oya, ko'nikma yoki akademik mavzuning ahamiyatini tushuntirish imkonini bering;

18. Ularni "Nimani bilmayman?" degan savoldan boshlashga o'rgating.

Yuqorida keltirilgan strategiyalar talabalarni tanqidiy fikrlashga undab, muammo, vaziyatlarni turli rakursdan ko'rishga, bir necha yechimlarni topishga hamda har bir talaba uchun o'ziga xos akmeologik strategiyalarni belgilashga yordam beradi.

Xulosa. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda strategiyasiz ta'lim samara bermaydi, natijada jamiyatning rivojlanishi sekinlashadi yoki to'xtab qoladi. Tanqidiy fikrlashsiz ta'lim – bu xaritasiz manzilga chiqib, yurishga o'xshaydi. Strategiyasiz ta'lim – bu loyhasiz bino qurishga o'xshaydi. Tanqidiy fikrlashsiz jamiyat – manipulyatsiyaga tayyor odamlar guruhiga aylanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.
2. Barshay, J. (2019, Sept. 18). Why content knowledge is crucial to effective Critical Thinking. *Mindshift*. <https://www.kqed.org/mindshift/54470/why-content-knowledge-is-crucial-to-effective-critical-thinking>
3. Butler, H. A., Pentoney, C., & Bong, M. P. (2017). Predicting real-world outcomes: Critical thinking ability is a better predictor of life decisions than intelligence. *Thinking Skills and Creativity*, 25, 38-46.

4. Browne, M., & Freeman, K. (2000). Distinguishing features of critical thinking classrooms. *Teaching In Higher Education*, 5(3), 301-309. doi: 10.1080/713699143
5. Djurayev R.X. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. T., "Fan" nash., 2008, 195 b.
6. Ginsburg, D. (2011). *When helping students hurts students*. *Education Week blog*. Retrieved from:
http://blogs.edweek.org/teachers/coach_gs_teaching_tips/2011/03/when_helping_students_hurts_students.html
7. Miller, S. (2005). The dialogue of creative and critical thinking. *Inquiry: Critical Thinking Across The Disciplines*, 24(4), 37-43. doi: 10.5840/inquiryctnews20052447
8. Odilova M. Jabborova D. Jo'rayev S. Pedagogik atamalar lug'ati N.2023, 94 b.
9. Saaris, N. (2019, March 19). Expert strategies to drive greater depth of knowledge in your classroom. *Actively Learn*. <https://www.activelylearn.com/post/expert-strategies-to-drive-depth-of-knowledge>
10. Sternberg, R., Roediger, H., & Halpern, D. (2007). *Critical thinking in psychology*. Cambridge:Cambridge University Press.315-327.
11. Van Zyl, M., Bays, C., & Gilchrist, C. (2013). Assessing teaching critical thinking with validated critical thinking inventories: The Learning Critical Thinking Inventory (LCTI) and the Teaching Critical Thinking Inventory (TCTI). *Inquiry: Critical Thinking Across the Disciplines*, 28(3), 40-50. doi: 10.5840/inquiryct201328318

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).